

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi
PhD B.A. Xodjayorova

Annotatsiya. Mazkur maqolada kreativ yondashuv asosida o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda va falsafiy, pedagogik yo'nalish asosida kommunikativ-nutq madaniyati, ta'lim-tarbiya jarayonidagi muloqot, yangicha qarashlar, idroklari, tafakkur, xayolni talab qiladigan ko'nikma-malakalarni shakllantiradigan usullardan foydalanish asosida yoritilgan

Kalit so'zlar: kommunikativ muloqot, muomala, qobiliyat, nutq texnikasi, innovatsiya, axborot texnologiyalari, ko'nikma, malaka.

O'zbekiston Respublikasi hukumati va Prezidenti olib borayotgan ijtimoiy - iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini tubdan rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni unib-o'sishi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratishga muhim ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", degan fikrlari mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi bo'lmish yoshlarni har tomonlama kamol topishiga berilayotgan e'tibordan darakdir. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib, kreativ yondashuv asosida o'quvchilarni muloqot texnikasini rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanib kelmoqda.

Zamon ta'labi shundaki, o'quvchilar kompetentligining mavjud holatlarini va kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirish muhim omillardan biri sifatida qaralishi yetakchi funksiyailardan sanaladi.

Ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning omillari A.V. Morozov, D.V.Chernilevskiy, M.M.Zinovkina, va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, ijod qilishning psixologik xususiyatlariga qaratilgan konseptual nazariyalar A.N.Leont'ev, D.B.Bogoyavlenskaya, Y.A.Ponomaryov, O.A.Xalifayev kabi olimlar tomonidan yaratilgan. Bizga yaxshi ma'lumki, bir qator pedagog olimlar o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini va nutq madaniyatiga oid muammolarini quyidagicha ya'ni nutq faoliyatining mohiyati to'g'risidagi masalalarni keltirib o'tmoqda;

- maktab o'quvchilari nutq faoliyatining mohiyati to'g'risidagi masalalar;

- xalq pedagogik ta'limda o'quvchilarining kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi masalalar;

- kommunikasiya va muloqot toifalarining o'zaro bog'liqligi masalasi.

Inson o'z oldiga qo'ygan barcha vazifalarni til yordamida muloqot qilish orqali hal qiladi, yoqimli muloqot qila bilish esa qadim zamonlardan san'at hisoblanadi. Hayotda duch kelinadigan muammolarni hal qilish ko'proq ularni muhokama qilish, boshqalarga tushuntirib bera olish bilan chambarchas bog'liq. Buning uchun esa til bilish va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish zarur. Muloqot

qachon, qaerda, qaysi mavzuda, kim bilan bo'lishidan cho'chimaydigan, o'zini erkin tutadigan, fikrlarini og'zaki va yozma shaklda bemalol ifoda eta oladigan insonlarni kreativ yondashuv asosida kommunikativ qobiliyatga ega deya olamiz. Bunday inson o'z barkamolligi bilan jamiyat ravnaqiga sezilarli hissa qo'sha oladi.

Hozirgi davrda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Ta'lim tizimida o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktablarda hamda o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'limning kommunikativ tamoyilini barcha o'quv fanlariga joriy etishni ko'zda tutuvchi standartlar hamda dasturlar sinovdan o'tkazilmoqda.

Bu ta'lim standartlari amaldagi standartlardan o'quvchilarni bilim olish bilangina cheklanmasdan, ular yig'ilgan bilim, ko'nikma va malakalarni tajribada qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilganligi bilan farq qiladi. Bunda kommunikativ layoqat alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchi tushunishi, bilishi bilan bir qatorda tushuntira olishi ham lozim. Yangi dasturlarda axborot bilan ishlashga e'tibor kuchaytirilgan. Har bir o'quvchi kuchayib borayotgan axborot oqimidan o'zi uchun zarurini tanlab, undan unumli foydalana bilmog'i kerak. Ko'zda tutilayotgan o'zgarishlar o'quvchilarni hayotga tayyorlashda samarali ko'mak beradi. Ta'lim tizimida fan yunalishlari bo'yicha berilayotgan nazariy bilimlarni amalda qo'llay bilish kommunikativ qobiliyat bilan uzviy bog'liq.

Ushbu qobiliyatni tarbiyalash va takomillashtirish qator masalarni hal qilishni taqozo etadi.

Kommunikasiya - muomala, muloqot, aloqa -bu kishilar o'rtasidagi hamkorlik zarurati tufayli sodir bo'ladigan ko'pqirrali munosabatlar jarayonidir. Muomala kishilar o'rtasidagi axborot olish va berish hamda kishilarning bir-biriga o'zaro ta'sir qilish jarayonidir. Muomalaning asosiy vositasi til hisoblanadi. Muomala orqali kishilar amaliy va nazariy faoliyatlarini tashkillaydilar, axborot almashadilar, bir-birlarini tushunadilar, bir-birlari bilan kelishadilar, maqsadga qaratilgan harakat dasturlarini tuzadilar, bir-birlariga o'zaro ta'sir o'tkazadilar. Muomala jarayonida shaxslar o'rtasidagi munosabatlar shakllanadi, yuzaga chiqadi va amalga oshadi.

Kommunikativ nutq – bu kishilarningagi omillar orqali o‘rganib chiqqanligini ko‘rishimiz kishilarning nutq yordamida bir–birlari bilan fikr almashuvidir

Kommunikativ nutq madaniyati – kishilarning bir–birlari bilan fikr almashishi jarayonida axloq qoidalariga amal qilgan holda nutqdan moxirona foydalanishidir.

Kommunikativ nutq jarayonlarida so‘zlar aniq bo‘lishi talab qilinadi. Nutqdan doimiy ravishda to‘g‘ri foydalanish kerak. Nutqning keyingi muhim kommunikativ sifati uning tozaligi, ya'ni adabiy tilda begona elementlarning yo‘qligi. Ta'lim–tarbiya jarayonida kommunikativ nutq kompetentligi va kasbiy kompetentlik muammolari o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganligi sababli bu muammo masalalari bilan pedagog olimlar shug‘ullanib kelayotganligini ham ko‘rish mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonni amalga oshirishda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari bola bilan doimiy muloqotni tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og‘zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonining kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasini quyidagicha sharhlash mumkin:

1. Tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim. Uning ehtiyojlari strukturasi aniqlash kerak.

2. Ijoby emosiyalar vositasida ijoby xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak. Ong ham, iroda ham motivlar ierarxiasini shakllantira olmaydi. Zotan, bir ehtiyojning o‘rnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin.

3. Shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi.

Inson aqlan va axloqan tobora boyib o‘z oldiga oliyanob maqsadlar qo‘ya oladi. Shaxs muloqotda kamol topadi va kasbiy mahoratni ham egallaydi. Shu jihatdan olganda ta'lim-tarbiya jarayonida kommunikativ munosabat (aloqa o‘rnatish) insonning qalbiga kirish qobiliyati. muloqot, intonatsiya, pau'za, ritm, tamp eshitish sezgilari, idroklari xamda turli ruhiy jarayonlar: xotira, tasavvur, tafakkur, xayolni talab qiladigan ko‘nikma-malakalarni shakllantiradigan usul va metodlardan foydalanish o‘rinlidir. Bundan o‘quvchi ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirok etib, axloqiy tushunchalar bilim va ko‘nikmalarni hosil qiladi, natijada u ta'lim-tarbiya jarayonining kuzatuvchisi emas, balki uning faol ishtirokchisiga aylanadi. Shunday ekan axborotlar shiddati, kommunikativ qobiliyatlari, kreativ fikrlash va yangiliklar oqimi tobora kundalik hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylanib bormoqda. Bu esa o‘z o‘rnida har bir shaxsdan fikriy yetuklikni, to‘g‘ri mushohada yurita olishni, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishni texnologiyalashtirishdan va axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Ayniqsa bu jarayon jamiyatning sezilarli qismini tashkil etuvchi yoshlar ongi va shu o‘rinda keskin burilishlar, yangicha

qarashlarni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim mazmunini takomillashtirish, integratsiyalash, axborot texnologiyalariga asoslanilgan ta'limni tashkil etish esa ana shunday tezkor davr taqozosidir. Sog'lom fikr yurituvchi va ma'naviy jihatdan mukammal, aqlan yetuk, fikran teran, rivojlangan shaxsni tarbiyalash ta'limda yosh xususiyatlariga e'tiborli bo'lish, o'qitishda ta'limning barcha bo'g'inlar aro aloqadorligini ta'min etish va shaxs ongi va ta'lim, fan va innovatsiya tafakkurida yangicha g'oya, tasavvurlarni shakllanishiga imkon beruvchi zamonaviy faol usullardan foydalanishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009. – 41-b.
2. O'zbekiston Respublikasi —Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. Toshkent sh., 2020 yil, 23 sentyabr', O'RQ-637-son (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
3. Mudrik A.V. Sotsial'naya pedagogika. – M.: Akademiya, 2003. –200 s.
4. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.fan. PhD..... diss.— T., 2017.-158 b.
5. Margieva D.A. Sotsial'no-pedagogicheskaya adaptatsiya studentov mladshix kursov k uchebno-vospitatel'nomu prosessu v vuze: avtoreferat dis. ... kand. ped. nauk. Severo-Osetinskiy gos. un-t. Vladikavkaz, 2010. 24 s.
6. Bogoyavlenskaya D. B., Shadrikov, V. D. Rabochaya konsepsiya odaryonnosti /– M.: IChP «Izdatel'stvo Magistr», 1998. – 68 s.
7. Rubinshteyn, S. L. Prinsip tvorcheskoy samodeyatel'nosti: // Voprosi psixologii. – № 4. – 1986. – S. 101-107.
8. Hayitov O., Umarova N. Yoshlarda professional o'sishga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari. – T.: “TURON-IQBOL”, 2011. – 128 b.
9. A.A.Leont'ev. Osnovi psixolingvistiki. m. “smisl” 1999
10. S.Saydaliyev, F.Gabdulhakov. Psixolingvistika. Namangan. 2004
11. Abduqodirov A., Pardaev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. –T.: «Fan va texnologiya», 2012.
12. I. E. G'oziev Muloqot psixologiyasi. T.: Universitet, 2000 y
13. B. Xusanov, V. G'ulomov Muomala madaniyati Darslik – T.:“Iqtisod – Moliya” 2009 yil
14. O.Пўлатова “The Peculiarity of Communication in Human Relations”. Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 02/2020 92-94 бетлар
15. www.auris-verlag.de
16. Ta'lim vositasi asosida talabalarning muloqotlarini rivojlantirish. Ta'lim, fan va innovatsiya // 5-сон, 2021. O.Po'latova
17. Bo'lajak o'qituvchilar kompetentligi va kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirish. <https://journal.jspi.uz › article › S.H.Mahmudovich>.